

VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA JAZO TIZIMI

Akmalov Hamid Akmal o'g'li

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunida voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo tizimi, jazo tayinlash qoidalari, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish holatlari aks ettirilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida voyaga yetmaganlar javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari, jazo tizimiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat qonuni, voyaga yetmaganlar, jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikdan cheklash, ozodlikdan mahrum qilish, voyaga yetmaganlar komissiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining [1] insonparvarlik va odillik prinsiplaridan kelib chiqib, Jinoyat kodeksining Oltinchi bo'limi XV-XVI boblarida "Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari" belgilangan. Ushbu boblarda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo tizimi, jazo tayinlash qoidalari, javobgarlikdan, jazodan ozod qilish hollari o'z ifodasini topgan. Bizga ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va unga qarshi kurashishga yetarli darajada e'tibor berilgan bo'lsa ham, ammo Jinoyat qonunidagi bunday jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan normalar shu vaqtgacha biror marta ham tizimlashtirilgan holda hozirgi kodeksimizdagidek alohida bir bo'limda berilmagan edi. Unda ko'rsatilgan normalar jinoyat javobgarlikning umumiy qoidalarini o'z ichiga olishi bilan birga, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilganda ularga nisbatan jazo turlarining ancha takomillashganligi, sud ularga jazo tayinlashda o'smirning ruhiy rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'lig'ini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, kata yoshdagi kishilar va vaziyatning jinoyat sodir etishdagi o'rnini e'tiborga olib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilishda unga nisbatan davlatimiz tomonidan beriladigan bir qancha yengilliklarda ifodalanishi ko'rsatilganki, bunday holatlar Jinoyat kodeksining 7-moddasida ko'rsatilgan insonparvarlik prinsipining amalda qo'llanilayotganligiga misol bo'ladi.

Amaliyotchilar va olimlar o'rtasida ko'p yillardan beri voyaga yetmaganlarning javobgarligini qonunda alohida ajratib ko'rsatilishi zarurligi to'g'risida turli fikrlar mavjud bo'lib, bu masala 1994-yil qabul qilingan Jinoyat

kodeksida o'z aksini topdi. Voyaga yetmaganlarning javobgarligi xususida jinoyat huquqi fanida turli fikrlar bildirilgan bo'lib, aybdor shaxsning ahamiyati sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavfliligi darajasidan kam emasligi ta'kidlandi.

Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq o'n olti yoshga to'lgan, jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga asosan va Jinoyat kodeksining Oltinchi bo'limida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar. Jinoyat kodeksini o'rganib, tahlil qilib ko'rganimda shuni aniqladimki, Kodeksning Maxsus qismi 224ta normasida voyaga yetmaganlar uchun javobgarlik belgilangan.

Voyaga yetmagan shaxs deganda, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, ammo o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi. Umumiy qoidaga muvofiq o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso shaxslar jinoyat subyekti yoshiga yetgan hisoblanadilar. Ba'zi jinoyatlar uchun subyekt yoshi o'n to'rt yosh qilib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 81-moddasida ko'rsatilgan jazolar voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo turlarining qat'iy ro'yxatidir. Ushbu moddada jazo tizimi yengilidan og'iriga qarab joylashtirilgan, ya'ni:

- 1) jarima;
- 2) majburiy jamoat ishlari;
- 3) axloq tuzatish ishlari;
- 4) ozodlikni cheklash;
- 5) ozodlikdan mahrum qilish.

Jarima jazosi – voyaga yetmaganlarga nisbatan Jinoyat kodeksining 82-moddasiga muvofiq, bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha belgilanadi. Ushbu jazoni tayinlashda sud voyaga yetmagan shaxsning mustaqil daromadga, ish haqi yoki mol-mulkka ega ekanligini e'tiborga oladi. Jarima jazosi tayinlangandan keyin aybdor olti oy mobaynida uni to'lashdan bo'yin tovlasa, sud to'lanmagan jarima miqdorini axloq tuzatish ishlari bilan almashtiradi. Bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdoridagi jarima axloq tuzatish ishlarining bir oyiga tenglashtirib hisoblanadi.

Majburiy jamoat ishlari (JK 821-modda) – faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan oltmish soatdan ikki yuz qirq soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Majburiy jamoat ishlari voyaga yetmaganlarning sog'ligiga va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga zarar yetkazmasligi, o'qish jarayonini buzmasligi lozim. Majburiy jamoat ishlarini bajarish muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa,

olti oy davomida kuniga ikki soatdan oshmasligi, mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa, bir yilgacha bo'lgan muxlatda kuniga ikki soatdan oshmasligi kerak.

Axloq tuzatish ishlari (JK 83-modda) – bu mahkumni sud hukmi bilan belgilangan muddatga majburiy ravishda mehnatga jalb qilib, uning ish haqidan davlat foydasiga muayyan miqdordagi foiz undirish tariqasidagi jazo chorasi. Axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Mehnat layoqati – bu shaxsning mehnat qila olish qobiliyatiga ega ekanligidir. Umumiy qoidaga ko'ra, shaxs o'n olti yoshga to'lgandan so'ng mehnatga layoqatli hisoblanadi. Ushbu jazo turi bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi. Jazoni o'tash muddatiga dam olish, bayram, shuningdek mahkumning kasal bo'lgan kunlari ham kiradi.

Ozodlikni cheklash (JK 84-modda) – voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish (JK 85-modda) – voyaga yetmaganlarga nisbatan olti oydan o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan:

Og'ir jinoyat uchun – olti yilgacha;

O'ta og'ir jinoyat uchun – o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan:

Og'ir jinoyat uchun – yetti yilgacha;

O'ta og'ir jinoyat uchun – o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-sonli [2] qarorining 12-bandiga muvofiq, Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda sudlar JK 81—90-moddalarida belgilangan xususiyatlarni inobatga olishlari shart.

Voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash paytida JK 54-moddasida nazarda tutilgan holatlardan tashqari, har bir muayyan holda, shuningdek uning rivojlanish darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasi, sog'lig'i, jumladan, ruhiy rivojlanish darajasi, jinoyatni sodir etish motivlari, katta yoshdagi shaxslarning uning xulq-atvoriga salbiy ta'siri haqidagi ma'lumotlar, shaxsig ta'sir qiluvchi boshqa holatlar aniqlanishi va baholanishi lozim.

O'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxs ish sudda ko'rilayotgan vaqtda voyaga yetgan bo'lsa ham, unga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati yoki miqdori JK 82—85-moddalarida belgilangan maksimal muddat va miqdorlardan oshishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 21-sonli qarorining 3-bandida [3] Jinoyat protsessual kodeksining 51-moddasiga [4] muvofiq, surishtiruv, dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari bo'yicha advokatning ishtirok etishi shart. Himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan hollarda uning ishtirokisiz aniqlangan har qanday dalil yuridik kuchga emasdir.

Ko'plab davlatlarning jinoyat qonunida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortishning eng kam yosh chegarasi belgilangan. 1989-yil BMTning Bosh assambleyasi tomonidan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya [5] qabul qilingan bo'lib, u jinoiy yo'lga kirib qolgan bolalar va voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qator normalarni o'z ichiga oladi. Konvensiya voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortishning minimal muddatini belgilaydi. Lekin qator davlatlarda bu yosh chegarasi belgilanganidan ham kam bo'lishi mumkin. Masalan, Irlandiya jinoyat qonunchiligida jinoyat subyekti yoshi yetti yosh, Niderlandiyada o'n ikki yosh, Yaponiyada o'n uch yosh qilib belgilangan. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va jazo tizimi ham turli mamlakatlarda turlicha. Bir qator xorijiy rivojlangan davlatlar xususan, Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat qonuni (StGB)ni [6] o'rganib chiqish davomida ayon bo'ldi-ki, Germaniyada voyaga yetmaganlarning jinoyatlari kattalarning jinoyatlari kabi bir xil jinoyat qonuni (StGB) asosida kvalifikatsiya qilinadi, lekin o'ziga xos bir necha xususiyatlarga ega:

1. Voyaga yetmaganlar to'g'risidagi jinoyat qonuni (Jugendstrafrecht) [7] jinoiy huquqbuzarliklarni sanab o'tmaydi, lekin ularni voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llashning sanksiyalari va tamoyillarini ko'rsatadi va Germaniyada jinoiy huquqbuzarlik sodir etgan o'n to'rt yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarga nisbatan qo'llaniladi;

2. O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar Germaniyada yurisdiksiyaga ega emas, ammo sud huzuridagi vasiylik organi voyaga yetmagan shaxsning kelajakda jinoiy huquqbuzarlikni takrorlashning oldini olishga qaratilgan choralarni qo'llashi mumkin;

3. Germaniyaning voyaga yetmaganlar jinoyat qonunida (Jugendstrafrecht) belgilangan yosh chegaralari jinoiy jazoni belgilash uchun hal qiluvchi hisoblanadi.

4. Jugendgerichtsgesetz(voyaga yetmaganlarga oid qonun)ga ko'ra, voyaga yetmaganlar o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalar va o'n sakkiz yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lgan o'smirlar hisoblanadi;

5. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo choralari kattalar uchun jazo choralariga qaraganda ancha yengilroq bo'lib, tarbiyaviy xarakterdagi choralar ham nazarda tutilgan;

6. Voyaga yetmaganlar ham balog'atga yetmaganlar jinoyat qonuni va kattalar jinoyat qonuni (StGB) asosida jinoiy jazoga tortilishi mumkin.

Bu yerda hal qiluvchi narsa voyaga yetmagan shaxsning individual rivojlanish darajasidadir. Agar o'smir kattalar sifatida rivojlangan bo'lsa, jinoiy jazo StGB (kattalar jinoyat qonuni) asosida belgilanadi, Jugendstrafrecht (voyaga yetmaganlar jinoyat qonuni) faqat rivojlanish kechikishi bo'lgan o'smirlarga nisbatan qo'llaniladi. Qoida tariqasida, bunday hollarda Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idora (Jugendamt) vakillari sudga ayblanuvchining shaxsiga o'z baholarini va jazo turini qo'llash bo'yicha tavsiyalar beradilar.

7. Agar jinoiy huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmagan harbiy xizmatchi bo'lsa, unga nisbatan maxsus qoidalar qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ko'pgina rivojlangan xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat qonunchiligini qiyosiy tahlil etar ekanmiz voyaga yetmaganlar huquq va erkinliklarini, manfaatlarini himoya qilish, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishda ularga tayinlanadigan jazolar muhim ahamiyatga egadir.

"Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 37-moddasiga muvofiq, voyaga yetmaganlarga nisbatan o'lim va umrbod ozodlikdan mahrum qilish kabi jazolar qo'llanilishi mumkin emasligi belgilangan. Mazkur Konvensiyadan kelib chiqqan holda mamlakatimiz Jinoyat qonunida ham ushbu norma o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 17-moddasida belgilangan "Jismoniy shaxslarning javobgarligi" bo'yicha subyekt yoshi uch xil yosh toifasida belgilangan. Ushbu moddaning birinchi qismiga ko'ra umumiy subyekt yoshi o'n olti yosh etib belgilangan. Bundan tashqari ushbu moddada jinoyat subyekti yoshi o'n to'rt yosh bo'lgan moddalar va o'n sakkiz yosh bo'lgan moddalar ham ko'rsatib o'tilgan.

Ilmiy maqoladagi ma'lumotlar va izlanishlar yuzasidan taklif sifatida quyidagilarni bildirib o'tmoqchiman. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan jinoyat subyekti yoshini qaytadan ko'rib chiqib, o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman. Masalan, JK 97-modda (Qasddan odam o'ldirish) uchun jinoyat subyekti yoshi o'n to'rt yosh etib belgilangan. Ushbu normada subyekt yoshini o'n olti yosh etib belgilashni taklif sifatida bildirib o'taman. Chunki, o'n to'rt yoshli voyaga yetmagan shaxs ushbu vaziyatda o'z qilmishini va qilayotgan xatti-harakatlarini to'liq anglab yetmaydi va ongli ravishda his etmaydi. Bu kabi misollarni Jinoyat kodeksidagi boshqa moddalar bilan keltirib o'tish mumkin. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlar uchun esa javobgarlikni yanada qat'iy kuchaytirish lozim. Masalan, pedofil jinoyatchilarga nisbatan. Pedofil turdagi jinoyatlar voyaga yetmagan qizlarga nisbatan sodir etilsa va jazo tizimi yanada kuchaytirilmasa, ushbu holatlar yanada ortib borishi va ko'plab salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi turgan gap. Bugungi kunda ham ushbu jinoyatlarning ko'plab sodir etilayotganini barchamiz guvohi bo'lyabmiz. Bunday jirkanch holatlarga ko'z yumish yoki jazo tizimini yanada kuchaytirmaslik keyinchalik ushbu jinoyatlarning ortib borishi zamin yaratishi mumkin.

Bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish har bir jamiyatning voyaga yetmaganlar oldidagi burchidir. Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishi muayyan ma'noda jamiyat tomonidan yuqoridagi majburiyatlarning bajarilmaganligini ifodalaydi. Adolatning tiklanishi esa birinchi navbatda voyaga yetmaganlarning qayta tarbiyalanishida ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi; <https://lex.uz/docs/111453>.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-sonli qarori; <https://lex.uz/docs/1455976>.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 21-sonli qarori; <https://lex.uz/ru/docs/1449720>.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi; <http://lex.uz//docs/111460>.
5. Конвенция о правах ребенка; <https://lex.uz/docs/2595909>.

6. Criminal Code in the version published on 13 November 1998 (Federal Law Gazette I, p. 3322), as last amended by Article 2 of the Act of 22 November 2021 (Federal Law Gazette I, p. 4906); https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html

7. Germaniya Federativ Respublikasi voyaga yetmaganlar jinoyat qonuni (Jugendstrafrecht); Federal Republic of Germany juvenile criminal law (Jugendstrafrecht); <https://www.uni-potsdam.de/de/rechtskunde-online/rechtsgebiete/strafrecht/jugendstrafrecht>